

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Ashurov</b>	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar .....	106
<b>T.A.Julboyev</b>	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'limdan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
<b>C.Ф.Джафарзода</b>	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
<b>A.M.Maxmudov</b>	
Yosh futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish .....	124
<b>I.U.Nurmetova</b>	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish .....	129
<b>U.R.Radjarov</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatli o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati .....	136
<b>G.K.Yakubova, M.Mashrapova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatlari tahlili .....	141
<b>B.A.Rahimov</b>	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi .....	148
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari .....	154
<b>F.I.Sharipova</b>	
The development of reading literacy among future nurses .....	158
<b>L.X.Bektursinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
<b>K.X.Abduvaliyeva</b>	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии .....	169
<b>R.M.Ubaydullayev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi .....	173
<b>M.M.Yuldashov</b>	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari .....	180
<b>M.A.Suyunova</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari .....	190

## IQTISODIYOT

<b>O.Sh.Valiev</b>	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan .....	194

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	199
<b>S.U.Yuldashev</b>	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari .....	203
<b>G.N.Navro'zova</b>	
Shoh Naqshbandni tavsiflovchi yangi manbaa .....	207
<b>A.N.Sanaqulov</b>	
Ta'lim tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari .....	211



UO‘K: 378.147.352

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI****НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ****SOME ISSUES OF PEDAGOGICAL IMAGE FORMATION IN FUTURE TEACHERS****Bektursinova Lalaxon Xojanazarovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada pedagogik imiji va uning o‘ziga xosliklari, o‘qituvchi imijini shakllantirishga doir turli yondashuvlar tahlil etilgan hamda samarali usullari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan pedagogik imijini shakllantirishga doir qoidalar taklif etilgan.

**Аннотация**

В данной статье анализируются педагогический имидж и его особенности, различные подходы к формированию имиджа учителя, описываются эффективные методы. Также в статье автор предложил правила формирования педагогического образа.

**Abstract**

This article analyzes the pedagogical image and its features, various approaches to forming the image of a teacher, and describes effective methods. Also in the article, the author proposed rules for forming a pedagogical image.

**Kalit so‘zlar:** imij, vosita, usul, o‘qituvchi imiji, shaxsiy imij, akmeologiya, jozibadorlik.**Ключевые слова:** имиж, инструмент, метод, образ учителя, имидж личности, акмеология, привлекательность.**Key words:** image, tool, method, teacher image, personality image, acmeology, attractiveness.**KIRISH**

Ma‘lumki, fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta‘minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi[1, 3-b.]. Bu esa o‘qituvchilarni fasilitativ faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish lozimligini ko‘rsatadi. Pedagogik fasilitatsiyaning dolzarb masalalaridan biri o‘qituvchi imijini shakllantirishdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ensiklopedik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda imij tushunchasiga xilma-xil ta‘riflar berilgan. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘rif berilgan: “imij” atamasi lotincha “image” so‘zidan olingan bo‘lib, uni o‘zbek tilida bayon etadigan bo‘lsak, qiyofa, siymo, timsol, chiroy, mashhur, muhim, kelishgan, savlatli, ko‘rimli, obro‘li, nufuzli kabi ma‘nolarni bildiradi[2].

Rossiyalik tadqiqotchilardan E.V.Kondratev va R.N.Abramovlar imijga shunday ta‘rif berishadi: “Imij – murakkab ijtimoiy voqelikni vujudga keltirish va aniqlashning tejamkorroq usulidir. Imij – bu axborotni qayta ishlash natijalariga asoslangan ob‘ektning ramziy qiyofasidir. Bizning

## PEDAGOGIKA

imijimiz, o'zgalarning ko'z o'ngidagi suratimiz singari, ba'zi hollarda bizning o'zimizdan ham muhimroq bo'ladi" [3].

Ye.N.Bogdanov va V.G.Zazikinlar esa imijga quyidagicha ta'rif ta'rif beradilar: "Imij – ijtimoiy ongda nimaning yoki kimningdir shakllangan va stereotip xususiyatiga ega bo'lgan hissiy jihatdan boyitishdir" [4].

Tadqiqotchi V.S.Komarovskiy tomonidan esa "Imij – (inglizcha image so'zidan olingan) shaxslarning ma'lum guruhiga muayyan tarzda hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatish uchun bir maqsadli ravishda shakllantiriladigan shaxs, tashkilot yoki hodisaning qiyofasidir" [5], deb ta'rif berilgan.

Professor A.N.Chumikovning ta'kidlashicha, "Imij muammosi bo'yicha yozilgan ishlarning turli-tumanligiga qaramay, bu tushunchaga oid ko'pgina masalalar hanuzgacha muammoli bo'lib qolmoqda. Ayrim kishilar imijni yaxshi ko'rinish mahorati, deb tushunadilar va shunga yarasha kiyim-kechak tanlash, sochni turmaklash, o'ziga oro berish kabilar bilan shug'ullanadilar. Boshqalar uchun esa imij faqat tashqi ko'rinish bo'lib qolmay, balki shirali ovoz, o'zini tuta olish, omma oldida so'zlay bilish qobiliyati va muloqot qilish mahoratidir" [5, 318-b.].

A.V.Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiyilar "Qisqacha psixologik lug'at"da imijga shunday ta'rif beradilar: "imij" omma ongida aniq ob'ekt stereotip obrazining yaratilishidir. Imij tushunchasi aniq shaxsdan tashqari, tovarga, tashkiliy tuzilmaga, sohaga va h.k.ga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin[6].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

O'qituvchi imiji – ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ijtimoiy borliq, omma ongida o'qituvchi obrazining hissiy-ifodaviy idrok etilishi. Imij atrofdagilar bilan munosabat o'rnatishga yordamlashuvchi o'ziga xos insoniy vositadir. Shuning uchun o'qituvchi qanchalik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmasin, doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirib borishi, o'z imijini yaratishi lozim. Afsuski, sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 19 % o'qituvchi o'zining tashqi qiyofasidan qoniqish hosil qiladi. Pedagog imijini shakllantirishda ta'lim oluvchilarning fikrlariga tayanish lozim. Quyidagi anketa natijalari o'qituvchi imiji katta ahamiyatga egaligini ko'rsatadi va uning o'ziga xosliklarini ochishga yordam beradi.

"O'qituvchi bilan uchrashganda siz eng avvalo, nimaga e'tibor qaratasiz?" savoliga respondentlarning 63 % o'quvchilarga munosabatiga, 58 % o'quvchilar bilan muloqot uslubiga, 33 % xarakteriga, 21 % kiyimiga, 17 % soch turmagiga, 13 % yoshiga, 8 % yuziga, 4 % makiyajiga, o'zingizning javobingizga ustuniga 4 % hamma narsasiga deb javob berishgan.

"O'qituvchining qaysi sifatiga ko'proq e'tibor qaratasiz?" savoliga 79 % o'quv materialini tushuntira olish ko'nikmasiga, 50 % hazil-mutoyibaga moyilligiga, 38 % samimiyligiga, 33 % muloqotga kirishuvchanligiga, 4 % qat'iy nuqtai nazarga egaligiga, o'zingizning javobingiz ustuniga 4 % go'zalligiga degan javoblarni tanlashgan, qattiqqo'lligi javobini esa biror bir respondent qayd etmagan.

"O'qituvchi qanday ko'rinishga ega ekanligi sizga muhimmi?" degan savolga 46 % ishtirokchi tashqi ko'rinish asosiy emasligini, 29 % o'qituvchining tashqi ko'rinishi ular uchun muhim ekanligini, 13 % ahamiyati yo'qligini, o'zingizning javobingiz ustuniga 4 % asosiysi o'qituvchi toza va sipo ko'rinishga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tishgan.

"O'qituvchi so'nggi urfda kiyinishi lozimmi?" degan savolga 50 % respondent o'qituvchi zamonaviy, biroq kasbiga mos kiyinishi lozimligini, 50 % o'qituvchi o'zi xohlagan tarzda kiyinish huquqiga egaligini qayd etishgan. O'qituvchi chiroyli va yoshlarbop ko'rinishga ega bo'lishi kerakligini hech kim e'tirof etmagan.

"O'qituvchining tashqi qiyofasi qanday ko'rinishga ega bo'lmasligi kerak?" savoliga 58 % ishtirokchi iflos yurmasligi kerakligini, 50 % kalta yubkada yurmasligini, 46 % juda pardoq qilib yubormasligini, 42 % ochiq-sochiq kiyinmasligini, 13 % jinsi shim kiyimasligini qayd etishgan.

"O'qituvchining shaxsiy hayoti sizni qiziqtiradimi?" savoliga 58 % respondentlar o'qituvchining shaxsiy hayoti o'quvchini qiziqtiramasligi kerakligini, 33 % o'qituvchining oilasi qiziqtirishini, 21 % ularga baribir ekanligini, 8 % o'qituvchining uyida bo'lib qolishga yo'q demasligini aytib o'tishgan.

"Sizning o'quv faniga munosabatingizga o'qituvchining imiji ta'sir ko'rsatadimi?" savoliga 58 % ijobiy, 38 % salbiy degan javobni tanlashgan. 4 % respondent bu savolga javob berishga qiynalishini ta'kidlab o'tishgan.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Imij tushunchasiga berilgan ta'riflar asosida A.A.Kalyujniy uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi: tashqi qiyofa, muloqotning verbal va noverbal vositalari, shaxsiy va kasbiy "Men"ning uyg'unligi[7].

Tashqi qiyofa insonga o'ziga e'tiborni jalb etish, ijobiy obrazni yaratish, nafaqat o'zini istarali, balki nafosatli o'qituvchi sifatida ko'rsatishga yordam beradi. Pedagog o'zining tashqi qiyofasi bilan o'quvchilar va kattalarga o'rnak bo'lishi lozim. Unda boy ichki olam, bolalarga muhabbat va ular haqida g'amxo'rlik qilish uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Shuni yodda tutish lozimki, bolalar kattalardan, eng asosiysi o'qituvchidan to'g'ri kiyinishni o'rganishadi. Kiyim kiyishda eng muhim qoida namoyon bo'ladi: chiroyli ko'rinishga egami, demak yon-atrofdagi kishilarga hurmat bilan munosabatda. Insonning tashqi qiyofasiga qo'yiladigan talablar pedagogga o'zining kasbiy imijini yaxshilash va muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Haqiqiy o'qituvchi kiyim bilan emas, o'zining intellekti, kasbiy malaka va qobiliyatlari bilan hurmat qozonadi.

Verbal va noverbal vositalar imijning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ya'ni biz so'z yordamida boshqa kishiga ta'sir ko'rsata olamizmi, qanday jest va mimikalardan foydalanamiz, qanday o'tiramiz, turamiz va yuramiz – hamma-hammasi muhim ahamiyatga ega. O'zining kasbiy yetukligini namoyon qilish uchun yon-atrofdagilarga o'zining qulay tarzda taqdim etishga e'tibor qilishi va uddasidan chiqishi lozim. Tadqiqotlar asosida tasdiqlanganki, 35 % informatsiyani kishilar og'zaki (verbal) va 65 foizini noverbal vositalar yordamida oladi.

Shaxsiy va kasbiy "Men" uyg'unligi – pedagogik imijning muhim komponenti sanalib, ma'qul kelish va boshqa kishilar ajralib turish ko'nikmasi kasbiy muloqotda muhim sifat hisoblanadi. Imij o'qituvchining ichki ustanovkasiga aylanib qolmasdan, uning xarakteri va qarashlari bilan ham mos bo'lishi lozim. O'z obrazimizni yaratish orqali biz o'z-o'zimizni tarbiyalaymiz. Faoliyat shaxsiy-ichki anglanganlikni tashqi namoyon qilish manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu eng avvalo o'zining betakrorligini namoyon etish, pedagogik jarayonning (maqsad va vazifadan o'quv materiali, shakl, metod va vositalarni tanlashgacha) originalligini ta'minlash, muloqot uslubida, o'quvchilarning xulq-atvoriga munosabatida, vaziyatni to'g'ri mo'ljalga olishida namoyon bo'ladi.

A.A.Kalyujniyning fikricha, imijni yaratishning to'rtta usulini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, insonning o'zi atrofdagilarga qanday munosabatda bo'lishi, o'zi haqida nimalarni tasavvur qilishi orqali; ikkinchidan, imijmeykerlar – siyosatchilar, shou-biznes vakillari uchun imij yaratuvchi professionallar; uchinchidan, imijni yaratishda ommaviy axborot vositalari – radio, televidenie, ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o'ynaydi; to'rtinchidan, uni yon-atrofdagi kishilar – do'stlar, qarindoshlar, hamkasblar yaratadi[7].

Imijni rivojlantirish masalasi Ye.P.Kostenko izlanishlarida o'z aksini topgan[8]. Imijni akmeologik rivojlantirish algoritmi deganda, u avvaldan erishish mo'ljallangan natijani kafolatlash uchun bajariladigan barqaror harakatlarni tushunadi. Dastlabki bosqich – ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan insonning o'z-o'zini idrok etish va anglashi sifatidagi refleksiyaning mavjudligi. Ikkinchi bosqich – subyekt shaxsi va kasbiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan imijni loyihalash va amalga oshirish. Yakuniy bosqich – maxsus ishlab chiqilgan akmeologik dastur va texnologiyalar asosida subyektning amaliy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirishi va rivojlantirishi natijasida imijni korreksiyalash.

Tadqiqot natijalari asosida har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan shaxsiy imijni tarkib toptirishning quyidagi o'ziga xosliklari va texnikalari aniqlashtirildi:

- o'z-o'zini tahlil etish va o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- o'z-o'ziga nisbatan motivatsiya hosil qilish – o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash;
- jozibadorlik – ijobiy qiyofani yaratish;
- shaxsiy jozibadorlik metodikasi;
- muvaffaqiyatga erishish texnikasi;

O'z-o'zini tahlil etish va o'zi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. O'qituvchi imijini yaratish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati nafaqat, shakllantirish shart-sharoitlari va texnologiyalari, balki uning o'zi haqidagi shaxsiy tasavvurlariga ham bog'liqdir. Inson butun umr davomida o'z-o'zini anglashga harakat qiladi. Biz o'z haqimizdagi nuqtai nazarlarni shakllantirishga tayyor bo'lamiz va hech ikkilanmasdan nega shunday o'ylayotganimiz, harakat qilayotganligimizni tushuntirishga harakat qilamiz. Agar shunday bo'lmasa, biz qay tarzda o'zimiz haqimizda yaxshi bilishimiz mumkin?! O'qituvchi o'z-o'zini takomillashtirishni o'zining shaxsiy va kasbiy muammolarini o'rganishdan boshlashi kerak. Mazkur bosqichda o'z-o'zini tashxis etish

## PEDAGOGIKA

metod va usullarini tanlashga yordam olish uchun psixolog-mutaxassis katta rol o'ynaydi. O'zi haqidagi dastlabki tasavvurlarni pedagog turli pedagogik-psixologik metodikalarni o'tkazish orqali bilib olishi mumkin.

O'z-o'ziga nisbatan ijobiy motivatsiyani hosil qilish – o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash. Ma'lumki, o'z-o'ziga qaraganda boshqalarning ko'nglini olish oson, o'z-o'ziga maslahat berish va uni bajarish murakkab. Savol tug'iladi: qanday qilib inson o'z-o'zini motivlashtirishi mumkin? Agar o'zingni o'zing qo'llab-quvvatlamasang, boshqalardan ijobiy natija kutib bo'lmaydi. O'z-o'zini motivlashtirish harakatga undovchi inson holatini ifoda etadi. O'z-o'zini motivlashtirish uchun vaziyatni tahlil etish lozim. Buning uchun bir varaq qog'oz olinadi va uch qismga bo'linadi. Qog'ozchalarga quyidagi savollar yoziladi: "Ushbu vaziyatda nima yaxshi?", "Ushbu vaziyatda nima yomon?", "Biroq shu sababli men qila olishim mumkin...". Mazkur vaziyatning keyingi rivojini ko'rish, yomon fikr va o'y-xayollardan bartaraf bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, terapevtik usul – qog'oz terapiyadan foydalanish mumkin. Salbiy o'y-fikrlarni qog'ozga yozish orqali inson yomon o'y-xayollardan o'zini ozod qiladi.

Jozibadorlik – ijobiy qiyofani yaratish. Mohiyatiga ko'ra imij – bu o'z-o'zini namoyon etish, obrazning mohiyatini tavsif etishda namoyon bo'ladigan uning tashqi jihati. Bunda muhim o'rinni samarali imijni yaratish egallashi zarur. Agar inson o'zining kiyimi, pardozi, mimikasi orqali o'zining imijini yaratsa, ma'lum vaqt o'tganidan keyin uning haqiqiy tashqi jihatdan namoyon bo'layotganini his qiladi. Mavjud holat imijning yangi detallarini namoyon qilishni taqozo etadi.

Shaxsiy jozibadorlik metodikasi. Yuz – imijning asosiy tarkibiy qismi. Insonning yuz ifodasidagi hissiyot uning tanasidagi libos va aksessuarlaridan ko'proq tassurot qoldiradi. Masalan, ko'zdan ongli ravishda oqilona foydalanish so'zning tinglovchanlik xususiyatini 25 % ga oshiradi, ayniqsa, darsda yangi materialni tushuntirishda yordam berishi mumkin. Mushaklarni qisqartirish orqali yuzdagi emotsiya va ifodalarni boshqarish uchun feysbilding bilan shug'ullanish lozim: maxsus mashqlar, yuz gimnastikasi, ko'z aerobikasi, turli situativ rollarni o'ynash, videotrening.

Muvaffaqiyat texnologiyasi. Uning amalga oshishi quyidagi qat'iy qoidalarga amal qilishni talab etadi:

Birinchi qoida – "So'z ibtidoning boshlanishi". Sizning karerangiz va shaxsiy muvaffaqiyatingiz axborotdan boshlanadi. Qaerdan va qay tarzda o'zingizga ish tanlaysiz, rezyumeni qanday yozish kerak va suhbatda qay tarzda gapirish kerak, sizning sinfxonangiz va ish joyingiz qanday ko'rinishga ega, sizning hamkasbingiz o'zini qanday tutadi... Bularning barchasi bizning bo'lg'usi kareramiz bilan bog'liqdir.

Ikkinchi qoida – "Baliqchi baliqni uzoqdan ko'radi". O'zini to'g'ri ko'rsata olish oson ish emas. O'ylab ko'ring, sizga taklif qilingan bo'sh ish o'rniga siz o'zingizni salohiyatli nomzod sifatida taklif etishingiz mumkinmi? Agar sizga reyuzme yozish to'g'ri kelsa, barchasini aniq yozing, biroq esda tuting bu siz haqingizdagi yagona ma'lumot. Mazkur sohaga aloqador barcha sifatlarangizni sanab o'ting. Ayrim holatlarda sizning kompetentligingizni ko'rsatuvchi yutuqlarni misol sifatida keltirib o'tishingiz mumkin. Asosiysi, maktab rahbariyati aynan mazkur lavozimga sizni qabul qilish lozimligini tushunib yetsin.

Uchinchi qoida – "Butun dunyo sizning yutuqlaringizga qiziqadi". Bugun ijroiya va ommaviy faoliyatda talab qilinganidek, o'qituvchi ham o'zining imiji haqida qayg'urishi lozim. Bu bozor iqtisodiyotining talabi. Yuqori darajadagi kasbiy yetuklikka egalikning o'zi yetarli emas. Shaxsiy imij muhim qo'shimcha yoki zaruriy shartdir. Boshqa kasblarga adolatli munosabatda bo'lgan holda birinchi o'rinda pedagoglik kasbi turishini e'tirof etish zarur. Shuning uchun pedagog imiji shunday ko'rinishga ega bo'lsinki, butun dunyo ma'naviy qiyofamizga, mustahkam sog'ligimizga, tashqi ko'rinishimizga, omadimizga havas qilsin!

To'rtinchi qoida – "Siz go'zal ko'rinishga ega bo'lishingiz mumkin!". Kasbiy talablardan kelib chiqqan holda kiyim tanlashda qaddi qomatning o'ziga xosligi va qanday rang mos kelishini hisobga olish lozim. Agar kiyim, soch va tanining rangi uyg'un bo'lsa, tashqi qiyofaning ko'rinishi jozibali bo'ladi.

Beshinchi qoida – "Kiyim bilan kutib olish, aql bilan kuzatib qo'yish". Bu qoida quyidagi xulq-atvor me'yorlarida aks etadi:

- kiyinish masalasida belgilangan me'yorga amal qilish lozim. Kiyim qimmat bo'lishi mumkin, lekin ko'zga o'ta tashlanadigan bo'lmasligi kerak;

- ishda tashqi ko'rinishni birdan o'zgartirmaslik kerak;
- esda tuting: kiyim faqat ish joyida kasbga mos bo'lishi kerak va iloji boricha o'zingiz haqingizda zarurini so'zlang, ortiqcha gapirmang.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy-kasbiy imijni shakllantirish o'qituvchi mahoratining muhim tarkibiy qismidir. O'z-o'zini namoyon etish strategiya va usullarini tanlay olish pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lim muassasasi psixologi zamonaviy tendensiyalar va imijeologiyaning yutuqlarini hisobga olgan holda, o'qituvchi imijini shakllantirish yuzasidan zaruriy maslahatlarni berib borishi lozim.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед. фан. док. дисс. – Тошкент, 2007. – 305 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 362 б.
3. Кондратьев Э.В., Абрамов Р.Н. Связи с общественностью. М.: Академический Проект, 2005. – 126 с.
4. Богданов Е.Н., Зазыгин В.Г. Психологические основы «Паблик рилейшнз». 2-е изд. – СПб, 2004. – 36 с.
5. Комаровский В.С. «Государственная служба и СМИ». – Воронеж: Издательство им. Е.А. Болховитинова, 2003. – 257 с.
6. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Краткий психологический словарь. – М.: Политиздат, 1991. – 494 с.
7. Калюжный А.А. Психология формирования имиджа учителя. – М.: ВЛАДОС, 2004. – 222 с.
8. Костенко Е.П. Акмеологическая концепция развития имиджа политика: дисс. ... док.псих.наук. – М., 2008. – 267 с.